

**IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O‘ZBEKISTON SSRDA
BOLALAR KASALLIKLARI VA ULARGA QARSHI KURASH TARIXI**
Baxromjon Olimjonovich BADALOV

tayanch doktorant
Andijon davlat universiteti
Andijon, O‘zbekiston

Annotatsiya

Maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida mamlakatda bolalar orasida keng tarqalgan yuqumli va somatik kasalliklar, ularning kelib chiqish sabablari hamda ularga qarshi tibbiy-profilaktik chora-tadbirlar ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Urush sharoitida sog‘liqni saqlash tizimining cheklangan imkoniyatlari, oziq-ovqat tanqisligi, sanitariya-gigiyenik holatlarning yomonlashuvi bolalar kasalliklarining keskin ortishiga sabab bo‘lganligi asoslab berilgan. Shuningdek, davolash-profilaktika muassasalari faoliyati, tibbiyot` xodimlarning fidokorona mehnati va davlat siyosati darajasida amalga oshirilgan sog‘liqni saqlash ishlari yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: Ikkinchi jahon urushi, O‘zbekiston SSR, bolalar salomatligi, yuqumli kasalliklar, sog‘liqni saqlash tizimi, profilaktika, tibbiy xizmat, epidemiologiya, sanitariya holati.

**ДЕТСКИЕ БОЛЕЗНИ В УЗБЕКСКОЙ ССР ВО ВРЕМЯ ВТОРОЙ
МИРОВОЙ ВОЙНЫ И ИСТОРИЯ БОРЬБЫ С НИМИ**

Бахромжон Олимжонович БАДАЛОВ

базовый докторант
Андижанский государственный университет
Андижан, Узбекистан

Аннотация

В статье проводится научный анализ инфекционных и соматических заболеваний, распространенных среди детей в стране во время Второй мировой войны, причин их возникновения, а также медико-профилактических мер, принимаемых против них. Утверждается, что ограниченные возможности системы здравоохранения, нехватка продовольствия и ухудшение санитарно-гигиенических условий в военное время привели к резкому росту детской заболеваемости. Также освещается деятельность лечебно-профилактических учреждений, самоотверженный труд медицинских работников и проводимая на государственном уровне политика в области здравоохранения.

Ключевые слова: Вторая мировая война, Узбекская ССР, здоровье детей, инфекционные заболевания, система здравоохранения, профилактика, медицинское обслуживание, эпидемиология, санитарные условия.

Ikkinchi jahon urushi yillari jamiyat hayotining barcha sohalariga, xususan, sog‘liqni saqlash tizimiga jiddiy ta’sir ko‘rsatgan davr bo‘ldi. Bu davrda aholining,

ayniqsa bolalarning sogʻligʻi eng zaif va himoyasiz holatga tushdi. Oziq-ovqat taqchilligi, yashash sharoitlarining ogʻirlashuvi hamda tibbiy resurslarning yetishmasligi natijasida turli yuqumli kasalliklar keng tarqaldi. Bolalar orasida qizamiq, ich terlama, sil, dizenteriya kabi kasalliklar koʻpayib, oʻlim koʻrsatkichlari sezilarli darajada oshdi. Shu bois urush yillarida bolalar salomatligini muhofaza qilish va kasalliklarga qarshi kurashish masalasi davlat va tibbiyot tizimi zimmasiga muhim vazifalar yukladi.

Urush sharoitida raxit kasalligining oldini olish va uni davolashda SSSR Sogʻliqni saqlash xalq Komissarligining “Bolalar shifoxonalari, bogʻchalar va bola uylarida raxit kasalligining oldini olish va davolash tartibi” toʻgʻrisida 1942-yil 8-oktabrdagi yoʻriqnomasidan keng foydalanilgan. Ushbu masalaga sogʻliqni saqlash organlari hamda bolalarni davolovchi va profilaktika muassasalari shifokorlari tomonidan alohida eʼtibor qaratilgan. Bolalarning hayot sharoiti oʻzgarishi munosabati bilan raxitning oldini olish va davolash boʻyicha tadbirlar puxta va tizimli ravishda amalga oshirilgan.

Bolaning yetarli darajada toza havoda boʻlmasligi, notoʻgʻri ovqatlantirish va parvarish, muddatidan ilgari tugʻilish, koʻp va uzoq davom etuvchi kasalliklar raxitni keltirib chiqaruvchi asosiy omillar hisoblanadi. Shu sababli, bolalar shifoxonalari, bogʻchalar va bolalar uylari 2 oydan 1 yoshgacha boʻlgan, raxit rivojlanishiga moyilligi boʻlgan (muddatidan ilgari tugʻilgan, egizaklar orasidagi, aralash yoki sunʼiy oziqlanishda boʻlgan, ogʻir xastaliklarni boshdan kechirgan, noqulay maishiy sharoitda yashovchi va h.k.) bolalar maxsus hisobga olingan. Birinchi navbatda, ularning jismoniy rivojlanishi toʻgʻri yoʻnalishda kechayotganini taʼminlash maqsadida, tizimli ravishda tibbiy kuzatuvga olinib, bu jarayonga onalar ham faol jalb etilgan.

Bolalar bogʻchalari va bolalar uylarida kundalik turmush tarzini toʻgʻri tashkil etishga juda katta eʼtibor qaratilgan. 2 oydan 1 yoshgacha boʻlgan barcha bolalarga kuz-qish fasllarida belgilangan dozalar asosida “D” vitamini berish amaliyoti joriy qilingan. Raxit kasalligining boshlangʻich alomatlarini oʻz vaqtida

aniqlash maqsadida tibbiy ko'rik paytida har bir bolaning suyak tuzilmasi holatiga alohida e'tibor qaratilgan [5].

Katta yoshdagi bolalarni vaksinalash va qayta emlash faqat Butunittifoq sil kasalligiga qarshi emlash komissiyasining maxsus ruxsati asosida amalga oshirilgan. Qayta emlash bolalar shifoxonasida sil bo'yicha mutaxassis shifokor tomonidan yoki agar bunday mutaxassis mavjud bo'lmasa, pediatr tomonidan amalga oshirilgan [5].

O'zbekiston SSR Sog'liqni saqlash xalq komissarligining 1942-yil 27-iyuldagi ma'lumotlida joylarda shifokorlar tomonidan bog'cha bolalari orasida bezgak, difteriya va boshqa kasalliklardan jabrlanganlarining onalariga berilgan tibbiy varaqalar va parvarishga oid guvohnomalar to'g'ri berilganligi va uning asosi tekshirilmaganligi keltirilgan. Shuningdek, dispanser hisobidan chiqarish, karantindan va turli kasalliklardan bolalarni ozod etish masalalari ham nazorat qilinmagan. Harbiy vaziyatda bolalar bog'chasining to'g'ri tashkil etilgan faoliyati alohida muhim ahamiyat kasb etishini hisobga olgan holda, yuqorida qayd etilgan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida joylarda qator chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Jumladan, patronaj hamshirasi tomonidan bog'chalarga kelmagan har bir bolaning uyiga borib, sabablari aniqlangan. Ularga o'z vaqtida kerakli yordam ko'rsatilgan. Bog'chaga kelgan bolalar har kuni tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, kasallangan, ular bilan kontaktda bo'lgan va yuqumliligi shubha qilinganlari vaqtinchalik izolyatorga joylashtirilgan. Bu haqda kuzatuv jurnaliga qayd etilib, epidemiyaga qarshi barcha zarur chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Izolyatorlar uchun alohida xodimlar ajratilib, xonalarga kerakli jihozlar o'rnatilgan [5].

1942-yilda Namangan viloyatida bolalar orasida ko'kyo'tal (523 holatda), zaharli oshqozon hazm buzilishi (bundan keyin – dispepsiya) (387), qizamiq (405), difteriya (103), meningit (20) va boshqa kasalliklar tarqalgan. Viloyatda aniqlangan yuqumli kasalliklar tahliliga ko'ra, aholi orasida eng ko'p tarqalgan kasallik toshmali terlama (3 ming 241 holat) hissasiga to'g'ri kelgan. Keyingi o'rinda esa ichburug' (bundan keyin – dezinteriya) 1 ming 147 holatda va uchinchi o'rinda ichterlama 770 holatda aniqlangan [2]. Bu davrda mamlakat sanitariya

qoidalariga rioya qilishni kuchaytirish maqsadida butun aholi o'rtasida ommaviy sanitariya targ'iboti kuchaytirilib, yuqumli kasalliklarga qarshi birgalikda kurash olib borilgan. To'g'ri va tizimli tarzda amalga oshirilgan sanitariya targ'iboti va boshqa amaliy chora-tadbirlar natijasida yuqumli kasalliklarning oldi olinib, kasallik holatlarining kamayishiga erishilgan [4].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Sog'liqni saqlash xalq komissarligi tomonidan davolash va profilaktika muassasalarida bolalar orasida qizamiq, difteriya, skarlatina kasalliklarining oldini olishga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, qizamiq, difteriya va yuqumli ichak kasalligiga qarshi profilaktik emlash ishlari kuchaytirilgan. Bolalar bog'chalari va shifoxonalarga tashrif buyuradigan ko'ngilli onalar donorlikka jalb qilinib, bu qondan qizamiqqa qarshi immunoglobulin tayyorlashda foydalanilgan.

Bolalar poliklinikalaridagi shifokorlar va hamshiralar tomonidan bolalar bog'chalari va maktablarda ota-onalar yig'ilishlarida sanitariya va tushuntirish ishlarini olib borish yo'lga qo'yilgan. Bu ishga tibbiy xodimlar, o'qituvchilar, jamoat faollari va butun aholining keng qatlamlarini jalb qilinishi qisqa muddat ichida bolalar o'rtasida kasallanishlarning oldini olishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu tizimga ko'ra, kasal bolalarga uyida to'liq tibbiy xizmat ko'rsatilib yangi tug'ilgan chaqaloqlar patronaj orqali kuzatilishi ta'minlangan. Ushbu vazifani amalga oshirishda har 1 ming 200 nafar 3 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun 1 nafar uchastka bolalar shifokori va 2 nafar patronaj hamshirasi ajratilgan.

Bu davrda O'zbekiston SSR shahar shifoxonalarida 164 nafar bolalar pediatri lavozimi tashkil etilgan bo'lib, ularning barchasida o'rtacha 10 yillik ish tajribasiga ega kvalifikatsiyali pediatrlar faoliyat yuritgan [6]. Paratif, difteriya, ko'kyo'tal kabi yuqumli kasalliklar sezilarli darajada kamaygan. Jumladan, 2 yoshgacha bo'lgan bolalarda qizamiq 15 mingtaga, toksik dispepsiya 4 mingtaga, yuqumli 1 ming 950 taga va o'tkir gastroenterit 1 mingtagacha kamaygan [6].

Bolalarga tibbiy xizmatni ular yashaydigan joyga yaqinlashtirish maqsadida tibbiy xizmat ko'rsatiladigan hududi keng bo'lgan konsultatsiya xonalari va poliklinikalarga bo'lingan. Yirik turarjoy binolari, yotoqxonalar huzurida maxsus

moslashtirilgan xonalarda ularning filiallari tashkil qilingan. Ularda bolalarni yuqumli kasalliklardan muhofaza qilish uchun barcha sanitariya-epidemiologik talablar qat'iy bajarilishi belgilangan.

Kamquvvat va zaiflashgan bolalar uchun kuchaytirilgan diyetik ovqatlanish oshxonalarini tashkil etilib, 3 yoshdan 13 yoshgacha bo'lgan, og'ir xastalikni boshidan kechirgan, nimjon va kamquvvat bolalar poliklinikalar hamda umumiy poliklinikalar tarkibidagi bolalar bo'limlari orqali tanlab olingan. Keyinchalik ular shahar va tuman ijro qo'mitalari huzuridagi maxsus komissiyalar orqali kuchaytirilgan diyetik ovqatlanish oshxonalariga yo'naltirilgan. U butun tumandagi bolalarga ko'rsatiladigan davolash-profilaktika yordamining tashkilotchisi va rahbari hisoblanib, tuman markazida sog'lom va kasal bolalarni tibbiy ko'rikdan o'tkazib, davolash bilan shug'ullangan. Shuningdek, qishloq shifokorlik uchastkalari, feldsherlik, feldsher-akusherlik va akusherlik punktlarida bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatish masalalarida konsultatsiya va uslubiy yordam berilgan [6].

SSSR Xalq Komissarlari Sovetining ko'rsatmasi bilan 1943-yilning sentabr oyidan boshlab shaharda va qishloqdagi bolalar uylariga yagona taminot normasi belgilangan. Bolalar sog'lig'ini ta'minlash uchun bolalar uylari qoshida doimiy tibbiy xizmat xonasi tashkil etilgan. Har bir bolalar uyiga alohida shifokor va hamshira birlashtirilgan. 1943-yilning sentabr oyida bolalar uylaridagi hamma bolalar tibbiy nazoratdan o'tkazilgan. Darmonsizlangan va kasallangan bolalar shifoxona va sanatoriyalarga davolanishga yuborilgan [1].

SSSR Qishloq xo'jaligi Xalq Komissarligining epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha Davlat Harbiy Qo'mitasi vakolatxonasining 4-sonli buyrug'iga muvofiq, barcha uchastka shifokorlariga tana harorati yuqori va kasal bolalarni aniqlab, ularni ro'yxatga olish, ushbu bolalarni doimiy shifokor va patronaj nazorati ostida bo'lishi, uchastka shifokorlar ko'rsatmasiga muvofiq uy sharoitida har haftada kamida bir marta tekshirilishi belgilangan. Kasallik belgilari kuzatilayotgan yangi bolalar ham doimiy ravishda ro'yxatga olinib, ular nafaqat patronaj hamshiralari, balki uchastka shifokorlari tomonidan nazorat qilingan.

Uchastka shifokori tomonidan har bir uyga tashrif va tekshiruv bolaning kasallik tarixida qayd etib borilgan. Shifokorlar o'z uchastkasidagi 1 oygacha bo'lgan barcha yangi tug'ilgan chaqaloqlarni ko'rikdan o'tkazib, unga doimiy patronaj xizmatini ta'minlagan. Yangi tug'ilgan chaqaloqlardan oyiga kamida ikki marta xabar olingan. Barcha yangi tug'ilgan chaqaloqlar uchastka shifokorning maxsus daftarchasiga qayd qilingan.

Uchastka shifokorlari tomonidan yuqumli kasalliklar bilan og'rikan bolalar o'z vaqtida shifoxonaga yotqizilib, epidemiologik vaziyat yuzasidan nafaqat bolalar, balki ular bilan aloqada bo'lgan kattalar ham nazorat qilingan. Shifoxonalarda oshqozon-ichak kasalliklari bilan og'rikan bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatish Sog'liqni saqlash boshqarmasi tomonidan tasdiqlangan bolalar davolash muassasalarining yangilangan me'zonlari asosida olib borilgan. Yoz oylarida kolit yoki uning yuqumli holatlari aniqlansa, har oyda 2 marta davolash ishlari olib borilishi belgilangan. Bu hollarda kasallik aniqlangan birinchi kundan boshlab shifoxonalarda bemorlarga tibbiy xizmat ko'rsatishgacha bo'lgan davrda bakteriofag bilan majburiy ravishda davolash belgilangan [1].

Har bir uchastka shifokori yozgi ich ketish (bundan keyin – diareya)lar mavzusida bolalar shifoxonasida onalar bilan kamida uch marta suhbat o'tkazishi shart bo'lgan. Har bir uchastka shifokori o'z uchastkasida doimiy ravishda onalar maktabini tashkil etib, onalar ro'yxati, o'tkaziladigan suhbatlar mavzusi va onalar maktablari haqidagi ma'lumotlarni alohida daftarga qayt etib borgan. Har uchta suhbatdan so'ng shifokor tomonidan mazkur hujjat statistika bo'limiga taqdim etilgan [1].

Urush yillarida bezgak kasalligi uchun profilaktik tekshiruvlar tizimli ravishda olib borilishi natijasida, 26 ming 604 nafar bolalarda profilaktik emlash ishlari amalga oshirilgan [12]. Biroq bu davrda ona va bolalarga tibbiy yordam ko'rsatish borasida kamchiliklar ham kuzatilgan. Tubbiy nazoratning yetarli emasligi natijasida nimjon bolalar ko'payib, o'lim soni ortgan [3].

Xulosa qilib aytganda urush yillari mamlakatda bolalar salomatligi jiddiy sinovdan o'tdi va bu davrda kasalliklarning keng tarqalishi ijtimoiy-iqtisodiy

omillar bilan bevosita bog‘liq bo‘ldi. Shunga qaramay, sog‘liqni saqlash tizimi tomonidan amalga oshirilgan profilaktik va davolash choralari, shifokorlar va tibbiyot xodimlarining fidokorona mehnati bolalar o‘rtasidagi kasalliklar va o‘lim ko‘rsatkichlarini ma‘lum darajada kamaytirishga xizmat qildi. Tadqiqot natijalari urush sharoitida ham tibbiy tizimning moslashuvchanligi va aholi salomatligini saqlashdagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Ushbu tarixiy tajriba bugungi kunda ham epidemiologik xavflarga qarshi kurashishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Зиёев Х. Ўзбекистон биринчи ва иккинчи жаҳон уруши даврида. – Тошкент: Мухаррир, 2011.
2. Namangan viloyati davlat arxivi, 111-fond, 1-ro‘yxat, 64-yig‘ma jild, 14-varaq.
3. Siddiqov M.B. O‘zbekiston SSRda Sovet hokimiyatining ijtimoiy ta‘minot siyosati (1941 – 1945-yillar): tarix fanlari bo‘yicha (PhD) falsafa doktori dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2024.
4. Тагаев М.А. Болалар тиббиётининг ривожланиши тарихи (1885–1950 йиллар) //Актуальные проблемы обучения социально- гуманитарных наук в медицинском образовании: Международная научно-практическая онлайн конференция. – Тошкент, 2011.
5. O‘zbekiston Respublikasi Ilmiy-texnika va tibbiyot hujjatlari milliy arxivi (bundan keyin – O‘zR ITTH MDA 1-fond. 1-ro‘yxat, 3288-yig‘ma jild, 132-varaq.
6. O‘zR ITTH MDA 1-fond. 1-ro‘yxat, 3363-yig‘ma jild, 4 varaq.
7. <https://portal.archive.uz/articles/77>